

YANGI KONSTITUTSIYA — TARAQQIYOT QOMUSI

Abdullayev Shaxzodbek Jamshid o'g'li

Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi,

Harbiy va jismoniy tayyorgarlik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, uning yaratilish tarixi hamda yangi konstitutsiyaning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'ziga xos o'rni va roli haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, "Constitution", "Yangi O'zbekiston", qomus, sivilizatsiya, referendum, demokratiya, huquq, shaxs, tenglik, adolat.

Jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu burch va huquqlarimiz dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud bo'lganidek, Respublikamizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyamizda ham belgilab berilgan. Tarixdan ma'lumki qonun-qoidalar ma'lum bir imkoniyat va cheklovlardan tashkil topgan. Bizga yetib kelgan eng qadimiy qonunlardan biri Bobil podshosi Xammurapi tomonidan tuzilgan bo'lib, bu qonun quldor tuzumi huquqining xarakterli belgilarini o'zida aks ettirgan. Bu qonun qaydlari qadimgi Sharq huquqining qimmatli yodgorligi sanalib, bu yerlarda azaldan qonun ustuvorligi ko'rinib turadi. Shu bilan birga qadimgi Rimda ham qonunlar juda qat'iy va shafqatsiz bo'lishiga qaramay aniq belgilab berilgan bo'lib, "Konstitutsiya" atamasi ham imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun tufayli yuzaga kelgan.¹

Konstitutsiya so'zi asli lotinchadan olingan bo'lib, "Constitution" – tuzilish, tuzuk degan ma'nolarni anglatadi. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. Bugungi O'zbekiston qadimgi Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an'analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko'p asrli orzusini mujassam etgan. Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy

¹ <https://yuz.uz/uz/news/konstitutsiya-asosiy-qonunimiz>

Qonunimiz Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.²

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ilk bor 1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust) ushbu Konstitutsiya uchun asos bo'lib xizmat qilgan.³

2023-yilning 30-aprel kuni xalqimiz hayotida o'ziga xos voqelikka ega bo'lgan kun sifatida tarixga muhrlandi. Sababi, ko'p millatli xalqimiz ko'nglidagi o'zgarish va islohotlarga zamin yaratib berishi bilan ahamiyatli bo'lgan yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Ko'p ovoz bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganidan dalolat bermoqda.⁴ "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi". Ushbu haqqoniy e'tirof O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-noyabrda imzolagan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishda alohida ta'kidlandi. Aslida ham, mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu, o'z navbatida, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganidan yaqqol dalolatdir.⁵ Yangi Konstitutsiya nafaqat moddalarning ko'paygani bilan, balki g'oyaviy ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham yuksak maqomga ko'tarilib, unda fuqarolarning manfaatlari birinchi darajali bo'lganligi bilan ahamiyatlidir. Konstitutsiyada fuqaro hayotining barcha jabhalari aks etgan. Bu esa fuqarolar farovonligining o'sishiga, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi. Asosiy Qonunimizning oldingilardan va boshqa davlatlarning konstitutsiyalaridan ajralib turadigan o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, 1992-yilgi konstitutsiyamiz o'zining tub mohiyati va falsafasi, maqsadlari va g'oyalariga ko'ra yangi hujjatdir. Respublikamizning oldingi asosiy

² https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiyamizning_yaratilishi

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasining_Konstitutsiyasi

⁴ https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekistonning-yangi-konstitutsiyasi-xalqimiz-muallifligida-yaratildi_482249

⁵ <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11846>

qonunlari biz sobiq ittifoq tarkibida qog'ozdagina mustaqil bo'lgan davlatning konstitutsiyalari edi. Ushbu qomusimiz esa birinchi moddasidan oxirgi moddasigacha mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan.

Ikkinchidan, Konstitutsiyamiz o'zining ichki tuzilishi va yangi konstitutsiyaviy institutlari bilan ajralib turadi. Bunda 1991-yili qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida" gi konstitutsiyaviy qonun muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, Asosiy qonun boshqa konstitutsiyalardan farqli o'laroq o'ta mafkuralashtirish va siyosatlashtirish ruhi bilan boyitilmagan. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Umumbashariy insoniy qadriyatlar biz qurayotgan huquqiy davlat va demokratik adolatli fuqarolik jamiyatining asosi bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, Konstitutsiyamiz jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan xalqaro huquq talab va qoidalariga javob beradigan tarzda tayyorlangan. Chunki, O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida o'zining Konstitutsiyasida shunday talab va qoidalarni tan olgan va mustahkamlagan. O'zbekistonning ichki siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinchlik va siyosiy yo'l bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga amal qilish zaminiga qurilgan.

Beshinchidan, Konstitutsiyamiz jahon konstitutsiyaviy tajribasiga keng tayanishi va ijobiy tomonlardan atroflicha foydalanganligi bilan ham ajralib turadi. Konstitutsiyamiz eng taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, AQSh, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Italiya kabi G'arb davlatlari, ruhiyati va etnik jihatlardan bizga yaqin bo'lgan Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa Sharq davlatlarining boy tajribasidan eng demokratik jihatlarini, insonparvarlik g'oyalarini tarannum etuvchi xalqaro hujjatlarini o'zida jamlagan.

Oltinchidan, Konstitutsiyamizni mustaqil davlatimiz ravnaqining huquqiy kafolati darajasiga ko'taruvchi eng muhim belgi – unda jahonning ilg'or konstitutsiyaviy tajribasini milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining boy tarixiga uyg'unlashtirilib qo'llanilganidadir. Konstitutsiyaning 79-moddasida: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi" deb ko'rsatilgan. Asosiy qoidamizdagi ushbu so'zlar biz yoshlarni ruhlantiradi, yangi-yangi marralarni egallashga undaydi. O'zbekiston



Respublikasi Konstitutsiyasiga joriy etilgan ushbu o'zgartirish va qo'shimchalardan ko'zlangan asosiy maqsad qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida vakolatlarni yanada demokratik va mutanosib ravishda qayta taqsimlash hamda ularning o'zaro muvozanatini ta'minlashdir. Ana shu konstitutsiyaviy islohot asosida hokimiyat tarmoqlarining har biriga Konstitutsiyada belgilab berilgan o'z huquq va majburiyatlarini mustaqil holda amalga oshirish uchun zarur huquqiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi huquqiy davlat qurishga qaror qilgan ekan, yuksak huquqiy madaniyat, Konstitutsiya va qonunga hurmat milliy istiqloq mafkurasida muhim o'rin egallashi lozim. U o'zida xalqimizning eng ardoqli fazilatlarini, iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat-rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o'zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat qadriyatlarini va g'oyalarini mujassamlashtirishiga ishonchimiz komil. O'zbek xalqi asrlar mobaynida avaylab saqlab, sayqal toptirib kelgan o'z milliy urf-odatlarini, rasm-rusm, udum va an'analari, g'ururi, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi, e'tiqodi, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy dunyosi bilan ajralib turadi. Buyuk ajdodlarimiz umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda bevosita ishtirok etganlar, ular jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganlar. Ularning boy tarixiy va huquqiy merosidan asosiy qomusimizni yaratishda keng foydalanildi. Biz, yoshlar ilmning yuqori cho'qqilarini egallab, bilim va tajribamiz bilan Vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida xizmat qilishimizda Konstitutsiya biz uchun qo'llanmadir. Jahon hamjamiyatida O'zbekistonning o'rnini va mavqei tobora oshib borayotgan sharoitlarda mamlakat Konstitutsiyasi ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash ishida, asosiysi, mamlakatning izchil iqtisodiy rivojlanishi va xalq farovonligi oshishiga real huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. "O'zbekiston tarixi" darslik va o'quv qo'llanmalari
4. <http://www.insonhuquqlari.uz>
5. <https://www.gazeta.uz>
6. <https://constitution.uz>
7. <https://lex.uz>